

Fuqarolik ishlarini soddalashtirilgan tartibda ko'rish yuzasidan xorijiy davlatlar tajribasi

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro arbitraj va nizolarni hal qilish yo`nalishi magistri
Xaitxodjayeva Farangis Avazovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik ishlarini soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqish amaliyoti tahlil qilinadi hamda xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribalari o'rganiladi. Asosan Germaniya, Fransiya, AQSh, Rossiya kabi davlatlar sud tizimida soddalashtirilgan tartiblar qanday ishlashi, ularning yuridik mexanizmlari, qo'llanish shartlari va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda ushbu yo'nalishni rivojlantirish uchun xorijiy tajribalarni qiyosiy-huquqiy tahlil asosida tatbiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqola fuqarolik sud ishlarini yengillashtirish, sud yuklamasini kamaytirish va sud tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Kirish: Fuqarolik ishlarini soddalashtirilgan tartibda ko'rish bo'yicha Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, Boltiqbo'yi davlatlari va boshqa davlatlarning tajribasi ham muhim o'rin tutadi.

Xitoy Xalq Respublikasining FPKda ham sud ishlarini soddalashtirilgan tartibda ko'rish masalalari bayon etilgan. Xususan, mazkur davlatning FPKda "Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish" deb nomlangan 13-bob mavjud bo'lib, unga ko'ra, mazkur bobda belgilangan qoidalar aniq huquqiy munosabatlar bo'yicha aniq dalillar mavjud bo'lgan oddiy fuqarolik ishlari va kam ahamiyatli bo'lgan ishlar bo'yicha xal sudlari tomonidan ko'riladigan ishlar uchun tatbiq etiladi. Ushbu Kodeksning 143-moddasiga ko'ra, oddiy fuqarolik ishlari bo'yicha da'vogar xalq sudiga yoki taraflar tomonidan tuzilgan sud palatasiga da'voni og'zaki shaklda taqdim etishi mumkin bo'ladi. Har ikkala taraf xalq sudiga yoki taraflar tomonidan tuzilgan sud palatasigi bir vaqtda kelishlari va sud ularning nizolarini darhol ko'rib chiqishi yoki ish ko'rishni boshqa kunga belgilashi mumkin bo'ladi.

Xalq sudi yoki taraflar tomonidan tuzilgan sud palatasi taraflarni va guvochlarni sudga chaqirishning oddiy va qulay vositalarini qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Oddiy fuqarolik ishlari yakka sudya tomonidan mazkur Kodeksda nazarda tutilgan qoidalar asosida ishni ko'rib chiqadi. Sud tomonidan soddalashtirilgan tartibda ish

yuritilgan taqdirda sud hal qiluv qarori fuqarolik ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab o'ttiz kun ichida chiqarilishi kerak bo'ladi.¹

Material va metodlar: Qiyosiy-huquqiy tahlil metodi: Germaniya, Fransiya, AQSh, Rossiya kabi rivojlangan davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligi o'rganildi va ular O'zbekiston qonunchiligi bilan qiyoslandi. **Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish:** Har bir mamlakatda soddalashtirilgan tartibda ish yuritishga oid qonunlar, protsessual kodekslar, sud qarorlari va sharhlar o'rganildi. **Empirik tahlil:** Ayrim xorijiy mamlakatlarda sudlarning ish yuritish statistikalari va islohotlar samaradorligi haqidagi ochiq manbalar asosida tahlil qilindi. **Doktrinal tahlil:** Huquqshunos olimlarning ilmiy maqolalari, monografiyalari va xalqaro ekspert xulosalaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: Fuqarolik sud ishlarini soddalashtirilgan tartibda hal etish hamda ishlarning hal etilishini tezlashtirishga qaratilgan qonunchilik normalari Estoniya FPKda birmuncha batafsil bayon etilganligini ko'rish mumkin. Masalan, Estoniya Fuqarolik protsessual kodeksining "Soddalashtirilgan ish yuritish" deb nomlangan 43-bobida soddalashtirilgan ish yuritishning quyidagi turlari belgilangan:

- yozma tartibda ish yuritish;
- oddiy tartibda ish yuritish;
- hujjatli tartibda ish yuritish.²

Yozma tartibda ish yuritish qoidalariga ko'ra (403, 404-moddalar), sud taraflarning o'zaro roziligi asosida ishni sud majlisida mazmunan ko'rmasdan hal qilishga vakolatli bo'ladi. Ushbu holatda sud taraflarga ariza berish va iltimosnoma taqdim etish, shuningdek hal qiluv qarorini oshkora e'lon qilish uchun qisqa muddat tayinlaydi. Qarorda shuningdek, ishni ko'rgan sudyaning nomi ham ko'rsatilishi kerak. Qonun sudya tomonidan yozma tartibda ish yuritish uchun bir qator talablarni belgilaydi. Xususan, mulkiy nizoli ishlar bo'yicha sudya agar da'vo miqdori 50 000 kron (kron - Estoniya pul birligi bo'lib, 1 AQSh dollari 11,6 kronga teng)dan oshmasa va masofaning uzoqligi sababli yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra taraflarning sudga kelishi qiyinlashgan bo'lsa, sud yozma tartibda ish yuritishni tayinlashi mumkin bo'ladi.

Estoniya Fuqarolik protsessual kodeksining 405-moddasiga ko'ra, agar da'vo miqdori 20 000 krondan ko'p bo'lmasa, sud lozim topgan taqdirda mazkur

¹ Xitoy Xalq Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (1991-yil 9-aprelda Xalq vakillarining Umumxitoy kengashi yettinchi chaqiriq 4-sessiyasida qabul qilingan. Xitoy Xalq Respublikasi Raisining 1991-yil 9-apreldagi 4-sonli Farmoni bilan chop etilgan. 1991-yil 9-apreldan kuchga kirgan // "Chjungo falyuy nyuan'yszzyuan'" 1992. -B. 134-150. <http://chupanov.narod.ru/Chinalaw/05/02.htm>.

² Гражданский процессуальный кодекс Эстонии. Правовые акты Эстонии, 2005, № 18. -С. 1368-1406.

Kodeksda nazarda tutilgan umumiy printsiplarga rioya qilgan holda da'voni soddalashtirilgan tartibda ko'rishga haqli bo'ladi. Mazkur holatda sud protsessda taraflarning protsessual huquq va erkinliklarini ta'minlashi, ularning tushuntirishlari va iltimosnoma-larini tinglashi talab etiladi.

Estoniya FPKning "To'lov topshiriqnomasi bo'yicha tezlashtirilgan ish yuritish" deb nomlangan 49-bobida to'lov topshiriqnomasi bo'yicha tezlashtirilgan tartibda ish yuritish shartlari, bu haqdagi arizaning mazmuni, arizani hal etish, tezlashtirilgan ish yuritish tartibida to'lovni undirish to'g'risidagi taklif, e'tirozni taqdim etish, tezlashtirilgan ish yuritishning da'vo tartibida ish yuritishga aylanishi bilan bog'liq normalar o'z ifodasini topgan. Estoniya FPKning 2-bo'limi "Bola uchun aliment undirish to'g'risidagi talab bo'yicha tezlashtirilgan tartibda ish yuritish" deb nomlanadi. Mazkur bo'limda bola uchun aliment undirish to'g'risidagi talab bo'yicha tezlashtirilgan tartibda ish yuritish shartlari (491-modda), bu haqdagi arizaning mazmuni (492-modda), undirish to'g'risidagi taklif (493-modda), taqdim etilgan e'tiroz (494-modda), da'vo tartibida ish yuritishda qarzdorning e'tirozi (495-modda), to'lov topshiriqnomasi (496-modda), aliment miqdorining o'zgartirilishi (497-modda)ga doir normalar mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, sud o'zga shaxsga taqdim qilingan muayyan pul summasini to'lash to'g'risidagi xususiy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talabnomani to'lov topshiriqnomasi bo'yicha ish yuritish to'g'risidagi ariza asosida hal qiladi. Bu holat arizachining talabni da'vo tartibida ish yuritishga taqdim qilishga bo'lgan huquqini cheklamaydi, lekin bir paytning o'zida to'lov topshiriqnomasi bo'yicha ish yuritishni istisno qiladi.

To'lov topshiriqnomasi bo'yicha ish yuritishga quyidagi holatlarda yo'l qo'yilmaydi:

agar ariza taqdim qilish paytida talabning undirilishi vaqti yetmagan bo'lsa yoki talabni taqdim qilish hali bajarilmagan birgalikdagi majburiyatning bajarilishiga bog'liq bo'lsa;

agar talabning predmeti nikoh davomidagi mulkni bo'lishdan kelib chiqadigan pul summasini to'lashdan iborat bo'lib, basharti qonunda o'zgacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa;

agar talabning predmeti nomulkiy zararni qoplashdan iborat bo'lsa;

agar talab to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan qarzdorga nisbatan taqdim qilingan bo'lsa.

Sud to'lov topshiriqnomasi bo'yicha ish yuritish to'g'risidagi arizani uni olgan kundan boshlab yetti kun ichida ko'rib chiqadi.

To'lov topshiriqnomasi to'g'risidagi arizani qanoatlantirmay qoldirish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat keltirilmaydi. Arizaning qanoatlantirmay qoldirilishi arizachining talabni da'vo ish yuritish tartibida kiritish huquqini cheklamaydi.

Agar ish yuritishda iltimosnoma shaklida kiritilgan to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi taqdimnomaning qarzdorga yetkazilishi da'vo muddatiga amal qilingan yoki muddat to'xtatib turilganini anglatsa, ariza qanoatlantirmay qoldirilgan holatda to'lov topshiriqnomasi bo'yicha ish yuritish to'g'risidagi ariza berilgan vaqtdan boshlab da'vo muddatiga amal qilingan yoki muddatning o'tishi to'xtatilgan yoxud to'xtatib turilgan deb hisoblanadi, agar talabni qanoatlantirish da'vo ishi yuritish tartibida davom ettirilayotgan yoki arizachi to'lov topshiriqnomasi bo'yicha ish yuritish to'g'risidagi arizani qanoatlantirmay qoldirish to'g'risidagi qarorni olgan kundan boshlab 30 kun ichida aynan shu talab bo'yicha da'vo kiritsa, bu haqida javobgarga ma'lum qilinadi.

To'lov topshiriqnomasi bo'yicha ish yuritish to'g'risidagi ariza sud tomonidan qanoatlantirilgan taqdirda ushbu qaror orqali to'lovni amalga oshirish to'g'risida taqdimnoma kiritadi.

Sud qarzdorga to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi taqdim-noma va e'tiroz blankasini taqdim qiladi va arizachiga mazkur taqdimnoma berilganligi haqida ma'lum qiladi. To'lovni amalga oshirish to'g'risidagi taqdimnomani ommaviy tarzda yetkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qarzdor to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi taqdimnomani kiritgan sudga to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi taqdim-noma yetkazilgan vaqtdan boshlab uch hafta ichida talab yoki uning bir qismiga nisbatan e'tiroz bildirishi mumkin. E'tiroz to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi taqdimnomaga ilova qilingan blankada yoki o'zgacha shaklda bildirilishi mumkin. E'tirozni asoslash talab etilmaydi. Sud arizachiga e'tiroz bildirilganligi va uning vaqti haqida ma'lum qiladi.

Qarzdor tomonidan to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi taqdimnomaga o'z vaqtida e'tiroz bildirilgan taqdirda mazkur taqdimnomani tuzgan sud ishni da'vo tartibida ish yuritishda davom ettiradi yoki ishni to'lov topshiriqnomasi bo'yicha ish yuritish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan sudga yoxud taraflarning birgalikdagi iltimosnomalarida ko'rsatilgan sudga yuboradi.

Taraflarga ishning da'vo tartibida ish yuritishga yuborilganligi haqida ma'lum qilinishi shart.

Ishni da'vo tartibida yuritilishida ish yuritish bo'yicha xarajatlar protsessual xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

Da'vo tartibida ish yuritishning mazmuniga ko'ra, da'vo to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi taqdimnomaga e'tiroz bildirilgan kundan boshlab olti oy muddatda ish yuritishga qabul qilingan taqdirda to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi taqdimnoma yetkazilgan vaqtdan boshlab da'vo kiritilgan hisoblanadi.

Agar arizachi da'vo ishi yuritish tartibida yoki ish yuritishni to'xtatish to'g'risida iltimos qilmagan bo'lsa, uy-joy va ulushli egalikdagi mulk bilan bog'liq talab bo'yicha ish alohida tartibda ish yuritishda davom ettiriladi.

Ishni da'vo ishlarini yuritish tartibida ko'rayotgan sud to'lov topshiriqnomasi bo'yicha ish yuritish to'g'risidagi ariza da'vo arizasi talablariga mos kelmagan taqdirda arizachiga o'z talabini va uning asosini o'n to'rt kunlik muddatda da'vo arizasi shaklida taqdim etishi shartligini ma'lum qiladi.

Qarzdorga talabning asosi yetkazilganda da'voga javob berish uchun muddat beriladi.

Agar arizachi o'z talabining asosini sud tomonidan belgilangan muddat ichida taqdim qilmasa, sud da'voni ish yuritishga qabul qilishni rad qilish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Qarzdor sudga beriladigan arizasi orqali to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi taqdimnomaga nisbatan bildirilgan e'tirozini da'voga javob bergunga qadar yoki da'vo ishlarini yuritish tartibida o'zgacha protsessual harakat sodir etilgunga qadar qaytarib olishi mumkin. E'tiroz qaytarib olingan taqdirda to'lov topshiriqnomasi bo'yicha ish yuritish davom ettiriladi.

Agar qarzdor to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi taqdim-nomada ko'rsatilgan pulni to'lamagan va taqdimnomaga o'z vaqtida e'tiroz bildirmagan bo'lsa, sud pulni undirish haqida qaror shaklidagi to'lov topshiriqnomasini tuzadi. Ish boshqa sudga yuborilgan taqdirda to'lov topshiriqnomasi mazkur sud tomonidan tuziladi.

Agar qarzdor e'tirozda to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi taqdimnomani qisman tan olsa, sud tan olingan qism bo'yicha to'lov topshiriqnomasi tuzadi. Ish keyinchalik da'vo ishlarini yuritish tartibida hal qilingan taqdirda sud ishni pulning undirilgan qismi bo'yicha ham ko'rib chiqadi va oqi-batda mazkur qism bo'yicha to'lov topshiriqnomasini bekor qiladi.

Sud to'lov topshiriqnomasini to'lov topshiriqnomasidagi ijro yozuvi ko'rinishidagi soddalashtirilgan shaklda tuzishi mumkin.

To'lov topshiriqnomasida avvalroq amalga oshirilgan protsessual xarajatlar ko'rsatilishi shart.

To'lov topshiriqnomasida qarzdorga qaror yetkazilgan kundan boshlab uch haftalik muddatda uning qarorga nisbatan e'tiroz bildirish huquqi tushuntirilishi shart.

To'lov topshiriqnomasi va e'tiroz blankasi qarzdorga yetkaziladi va bu haqda arizachiga ma'lum qilinadi. To'lov topshiriqnomasi qarzdorga ommaviy usulda yetkazilishi mumkin emas.

To'lov topshiriqnomasi zudlik bilan ijro etilishi shart.

Qarzdor to'lov topshiriqnomasini tuzgan sudga to'lov topshiriqnomasi yoki uning bir qismiga nisbatan unga to'lov topshiriqnomasi yetkazilgan kundan boshlab uch haftalik muddatda e'tiroz bildirishi mumkin. To'lovni amalga oshirish to'g'risidagi taqdimnomaga nisbatan bildirilgan kechikkan e'tiroz ham agar u to'lov topshiriqnomasiga e'tiroz bildirish muddati o'tguniga qadar taqdim etilgan bo'lsa, to'lov topshiriq-nomasiga e'tiroz hisoblanadi. E'tiroz to'lov topshiriqnomasiga ilova qilingan blankada yoki o'zgacha shaklda keltirilishi mumkin. E'tirozni asoslash talab etilmaydi. Sud arizachiga e'tiroz bildirilganligi va uning vaqti haqida ma'lum qiladi. E'tiroz bildirilgan taqdirda talabning ko'rib chiqilishi da'vo ishlarini yuritish tartibida davom ettiriladi. To'lov topshiriqnomasiga e'tiroz keltirilgan taqdirda sud uning ijrosini to'xtatib turishi mumkin.³

Latviya FPKda ham sud ishlarini soddalashtirilgan tartibda yuritish masalalariga oid qator normalar mustahkamlab qo'yilgan.⁴ Xususan, mazkur Kodeksning 501-bobi "Majburiyatlarni ogohlantirish tartibida majburiy ijro qilish" deb nomlanib, unga ko'ra majburi-yatlarni ogohlantirish tartibida majburiy ijro qilishga quyidagi majburiyatlar bo'yicha yo'l qo'yiladi:

1) hujjat bilan asoslantirilgan va ijro qilish vaqti kelgan to'lov majburiyatlari bo'yicha;

2) shuningdek, mahsulot yetkazib berish, mahsulot sotib olish yoki xizmat ko'rsatish shartnomasida zararni qoplash haqida kelishuv mavjud bo'lgan to'lov majburiyatlari bo'yicha, agarda ushbu majburiyatlar hujjat bilan asoslangan va ularni ijro qilish uchun muddat belgilangan bo'lsa.

Majburiyatlarni ogohlantirish tartibida majburiy ijro qilishga quyidagi hollarda yo'l qo'yilmaydi:

bajarilmagan qarshi ijro bilan bog'liq to'lovlar bo'yicha;

qarzdorning yashash joyi noaniq bo'lsa;

³ Гражданский процессуальный кодекс Эстонии. Правовые акты Эстонии, 2005, № 18. -С. 1368-1406.

⁴ Гражданский процессуальный закон Латвии. Закон, принятый Сеймом 14 октября 1998 года и обнародованный Президентом государства 3 ноября 1998 года.

qardorning yashash joyi yoki joylashgan joyi Latviya Respublikasida joylashmagan bo'lsa.

Gruziya FPKda "Soddalashtirilgan ish yuritish" nomli beshinchi bo'lim mavjud bo'lib, mazkur bo'limning XXXIII bobi "Veksel va cheklar bo'yicha qo'zg'atilgan da'volarni ko'rish" deb ataladi. Unda ko'rsatilishicha, Gruziyaning veksel to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq veksel kelib chiqadigan talabnoma qo'yilgan bo'lsa, da'voda mazkur ishni ko'rishda albatta ushbu bobda nazarda tutilgan soddalashtirilgan tartib-taomillar qo'llanishi ko'rsatilishi kerak.

Da'vo arizasiga vekselning nusxasi ilova qilinishi lozim. Biroq ishni sud majlisida og'zaki ko'rish paytida da'vogar tomonidan vekselning asl nusxasi taqdim etilishi kerak.

Veksel to'g'risidagi da'volar bu bo'yicha to'lov amalga oshiriladigan sudda yoki javobgarning yashash joyidagi sudda qo'zg'atilishi mumkin. Mazkur qoida veksel to'g'risidagi da'volar bir necha shaxslarga nisbatan qo'zg'atilganda ham tatbiq etilishi mumkin.

Agar sudning joylashgan yeri bo'yicha sud chiqiruv xati topshiriladigan bo'lsa, u holda taraflarga sud majlisi boshlanguniga qadar 24 soatdan kam bo'lmagan muddatda topshirilishi shart. Agar chiqiruv xati boshqa joyda topshirilishi kerak bo'lsa, ushbu muddat uch kunga cho'zilishi mumkin.

Ish bo'yicha isbotlash vositasi sifatida faqatgina hujjatlar (yozma dalillar) va taraflarning tushuntirishlari yo'l qo'yiladi. Shuningdek, hujjatlarning tasdiqlovchi hujjat sifatida faqatgina uni tasdiqlovchi hujjatlar tan olinadi.

Da'vogar mazkur ishni ko'rish yakunlanguniga qadar javobgarning rozilgisiz mazkur bobda nazarda tutilgan qoidalar asosida ko'riladigan soddalashtirilgan ish yuritishdan voz kechish huquqiga ega. Ushbu holatda ish umumiy tartibda ko'riladi. Veksel bo'yicha qo'zg'atilgan ishlarda bir necha da'vo talablarini birlashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Qarshi da'vo qo'zg'atishga ham yo'l qo'yilmaydi.

O'ziga qarshi ilgari surilgan da'voni rad etayotgan javobgar o'z huquqlarini amalga oshirish maqsadida har qanday holatda ham hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin ish bo'yicha qo'shimcha ish yuritishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Agar qo'shimcha ish yuritishda da'vogarning talabi asoslantirilmaganligi aniqlansa, u holda mazkur bobda nazarda tutilgan qoidalar asosida chiqarilgan sud hal qiluv qarori bekor qilinadi; da'vogarning talabini qanoatlantirish to'g'risidagi talabini qanoatlantirish rad etiladi va sud xarajatlari tegishi ravishda taqsimlanadi. Da'vogarga sud hal qiluv qarorini ijro etish yoki uning g'ayrihuquqiy hatti-harakatlari natijasida javobgarga nisbatan yetkazilgan zararni undirish majburiyati

ham yuklatilishi mumkin. Javobgar ishni sudda ko'rish jarayonida yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi talabni ham ilgari surishi mumkin.

Agar Gruziya qonun hujjatlariga muvofiq chek haqidagi talab ilgari suriladigan bo'lsa, u holda veksel to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritish qoidalari qo'llaniladi.⁵

Armaniston FPKda ham ish ko'rishni tezlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin. Xususan, mazkur Kodeksning 19-bobi "Tezlashtirilgan tartibda ish ko'rish" deb nomlanadi. Unga ko'ra, quyidagi holatlarda sud tezlashtirilgan tartibda ish ko'rishni qo'llash huquqiga ega bo'ladi:

1) ish ko'rishni kechiktirib bo'lmasligi zarurati ishning mazmunidan kelib chiqsa;

2) da'vo ochiqchasiga asoslantirilgan bo'lsa;

3) da'vo ochiqchasiga asoslantirilmagan bo'lsa.

Shuningdek, tezlashtirilgan tartibda ish ko'rishni qo'llash uchun quyidagilar ham asos bo'lishi mumkin:

1) agar talab yozma shaklda tuzilgan bitimga asoslangan bo'lsa;

2) agar talab oldindan baholangan zarar bo'yicha rad qilib bo'lmaydigan huquqqa asoslangan bo'lsa;

3) agar voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish haqidagi, otalikni belgilash bilan bog'liq bo'lmagan talab arz qilingan bo'lsa;

4) mehnat nizosi bilan bog'liq talab bilan arz qilingan bo'lsa;

5) talabni tasdiqlaydigan dalillar taqdim etilmagan bo'lsa (125-modda).⁶

Sud o'z tashabbusiga ko'ra yoki taraflarning iltimosiga muvofiq tezlashtirilgan tartibda ish ko'rishni qo'llashi mumkin.

Tezlashtirilgan tartibda ish ko'rishni qo'llash haqida sud ajrim chiqaradi.

Tezlashtirilgan tartibda ish ko'rish jarayonida sud mazkur ishni zudlik bilan hal qilish uchun tezlashtirilgan tartibda ish ko'rishni qo'llash maqsadga muvofiq emas yoki huquq to'g'risida nizo yuzaga kelgan deb hisoblasa, tezlashtirilgan tartibda ish ko'rishni qo'llashni rad etish haqida ajrim chiqaradi. Bunday ajrim chiqarilgan taqdirda sud ish ko'rishni mazkur Kodeksning 18 bobida belgilangan qoidalar asosida ko'rib chiqadi.

⁵ Гражданский процессуальный кодекс Грузии от 14 ноября 1997 года №1106-ИС.

⁶ Гражданский процессуальный кодекс Республики Армения от 7 августа 1998 года. (с изм. и дополн. на 01.12.2003 г.). - Ер. 2003.- 88 с.

Armaniston FPKning 128-moddasida belgilanishicha, tezlash tirilgan tartibda ish ko'rishni qo'llash uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda sud darhol hal qiluv qarori qabul qiladi.

Agar sud tomonidan ochiq-oydin asossiz bo'lgan da'vo taqdim etilganligi uchun da'vogarning da'vosini qanoatlantirish rad etilgan taqdirda javobgar da'vogarga nisbatan yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi da'vo arizasi bilan murojaat qilish huqqiga ega bo'ladi.⁷

Xulosa: Xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasi shuni ko'rsatadiki, protsessual qonunchilikni soddalashtirish undagi qoidalarni detallashtirish bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Protsessual qonunchilikdagi keragidan ortiq umumiy formulirovkalarning ko'pligi fuqarolik protsessi ishtirokchilarining huquqiy holatini to'g'ri aniqlanmaslik hamda sarsongarchilik kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Shu ma'noda protsessual qonunchilikda ayrim turdagi sud hal qiluv qarorlarining batafsil reglamentini belgilash taklif qilinadi. Bir tomondan sud hal qiluv qarorlari aniq va barcha talablarni o'zida to'liq ifoda etishi muhim hisoblanadi. Biroq, sud hal qiluv qarorining mazmunidan sud majlisi bayonnomasida qayd etiladigan ma'lumotlarning aks etmasligi ham mumkin. Shuning uchun ham sud hal qiluv qarorlariga nisbatan soddalashtirilgan va ixchamlashtirilgan qoidalarning qo'llanilishi haqida ham o'ylab ko'rish vaqti kelgan ko'rinadi. Xususan, A.P.Vershininning fikricha, sudlarda fuqarolik ishlarini ko'rish muddatlarining buzilishidan qochish maqsadida hozirgi kunda hal qiluv qarorlarining aniq bir turga kirmaydigan shakllari va qisman hal qiluv qarorlarini qabul qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, bu kabi sud hal qiluv qarorlarining chiqarilishi sud xarajatlarining ham kamayishiga xizmat qiladi. Shu o'rinda yuqorida bildirilgan fikrlarni davom ettirib, shuni alohida ta'kidlash kerakki, milliy protsessual qonunchiligimizda sud hal qiluv qarorlarining to'liq bo'lmagan turi – sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorlarini chiqarish joriy etilgan. Shu o'rinda sirdan ish ko'rish va hal qiluv qarorini chiqarish uchun oddiy va ixcham protsessual harakatlarni amalga oshirish imkoniyatidan foydalanish vujudga keladi.⁸ Sh.Sh.Shoraxmetov ham o'z asarlarida sirdan qaror chiqarish institutining amalga oshirilishi fuqarolik protsessida da'vogarlarning huquqlarini qo'shimcha kafolatlar bilan mustahkamlash, taraflarning, ayniqsa javobgar shaxslarning o'z harakat yoki harakatsizliklari uchun javobgarlik me'yorlarini oshirish, nizolarga ruxsat berilishini

⁷ Гражданский процессуальный кодекс Республики Армения от 7 августа 1998 года. (с изм. и дополн. на 01.12.2003 г.). - Ер. 2003.- 88 с.

⁸ Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism / Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Mas'ul muharrir yu.f.d., prof. O.Oqyulov. –Toshkent.: TDYuI nashriyoti. 2012. – 515 b.

tezlatish, shuningdek sud ish yurituvida bo‘lgan fuqarolik ishlarini birmuncha qisqartirish va ularni sud ish yurituvida to‘planib qolishini oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishini alohida ta’kidlab o‘tadi.⁹

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Xitoy Xalq Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi** (1991-yil 9-aprelda Xalq vakillarining Umumxitoy kengashi yettinchi chaqiriq 4-sessiyasida qabul qilingan, 1991-yil 9-apreldan kuchga kirgan). // Chjungo falyuy nyantszyan. 1992. – B. 134–150. <http://chupanov.narod.ru/Chinalaw/05/02.htm>
2. **Estoniya Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.** // Pravo Estonii. 2005, № 18. – S. 1368–1406.
3. **Gruziya Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi** (1997-yil 14-noyabrda №1106-IC).
4. **Armaniston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi** (1998-yil 7-avgustdagi; o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan holati: 01.12.2003-y.). – Yerevan, 2003. – 88 b.
5. **Latviya Respublikasining Fuqarolik protsessual qonuni.** Qonun 1998-yil 14-oktabrda Seym tomonidan qabul qilingan va 1998-yil 3-noyabrda Prezident tomonidan e’lon qilingan.
6. Mamasiddiqov M.M. *Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism.* – Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. O.Oqyulov. – Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2012. – 515 b.
7. Shoraxmetov Sh.Sh. Inson manfaatlariga qaratilgan kodeks // *Qonun himoyasida* jurnali. – 1998-yil, 2-son.

⁹ Shoraxmetov Sh.Sh. Inson manfaatlariga qaratilgan kodeks // J. Qonun himoyasida. 2-son, 1998-yil.